

## **2-MODUL: NOGIRONLIGI BOLGAN SHAXSLARNING HUQUQLARIGA OID XALQARO-HUQUQIY ASOSLAR**

### ***Modul doirasidagi asosiy masalalar***

1. *BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi (CRPD) tamoyillari.*
2. *Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi pakt (ICESCR)da mustahkamlangan huquqlar.*
3. *Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlariga oid boshqa xalqaro-huquqiy hujjatlar tahlili.*

### **1-§. BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi (CRPD) tamoyillari**

BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi (CRPD, 2006) nogironlik tushunchasini global miqyosda tubdan o'zgartirgan normativ-huquqiy hujjat bo'lib, u nogironlikni faqat tibbiy nuqson yoki shaxsiy buzilish sifatida emas, balki inson huquqlariga asoslangan ijtimoiy-siyosiy masala sifatida baholaydi. Konvensiya zamonaviy yondashuvda nogiron shaxslarni himoya qilinishi kerak bo'lgan obyekt emas, balki o'zining mustaqil huquq layoqatiga ega bo'lgan to'laqonli subyekt sifatida e'tirof etadi. CRPDning asosiy maqsadi nogiron shaxslarning inson qadr-qimmatini, tenglik va erkinlik tamoyillariga asosan jamiyat hayotida to'laqonli ishtirokini ta'minlashdan iborat.

Konvensiya nogironlikning ijtimoiy-huquqiy talqinini ilgari surib, jamiyatdagi to'siqlarni bartaraf etish orqali teng imkoniyatlar yaratishni davlatlarning bevosita majburiyati sifatida belgilaydi. Uning tamoyillari, nafaqat xalqaro huquq tizimi, balki milliy qonunchilik va davlat siyosatining modernizatsiyasi uchun ham universal mezon bo'lib xizmat qiladi. CRPDning eng muhim jihati shundaki, uning tamoyillari nogironlikni insonning ichki

nuqsoni emas, balki jamiyatdagi moslashmagan muhit mahsuli sifatida talqin qiluvchi ijtimoiy model bilan uyg'unlashgan.

### **CRPDning asosiy tamoyillarining umumiy huquqiy mohiyati.**

Konvensiyaning 3-moddasida 8 ta asosiy prinsip belgilangan bo'lib, ular nogiron shaxslarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning universal normativ bazasini tashkil etadi. Mazkur tamoyillar inson huquqlari tizimida nogironlik masalasini mustaqil normativ sohaga aylantirdi.

CRPDning asosiy tamoyillari:

- ✓ insonga xos bo'lgan qadr-qimmatni, uning shaxsiy mustaqilligi, shu jumladan mustaqil tanlovi erkinligini hamda mustaqilligini hurmat qilish;
- ✓ kamsitmaslik;
- ✓ jamiyatga to'la va samarali jalb etish va qo'shish;
- ✓ nogironlarning o'ziga xos xususiyatlarini hurmat qilish va buni insoniy turfa xillikning tarkibi va insoniyatning bir qismi sifatida qabul qilish;
- ✓ imkoniyatlarning tengligi;
- ✓ to'siqsiz foydalanish;
- ✓ erkaklar va ayollarning tengligi;
- ✓ nogiron bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatlarini hurmat qilish va nogiron bolalarning o'z shaxsiy xususiyatlarini saqlab qolish huquqini hurmat qilish.

**Insonga xos bo'lgan qadr-qimmatni, uning shaxsiy mustaqilligi, shu jumladan mustaqil tanlovi erkinligini hamda mustaqilligini hurmat qilish tamoyili.** Konvensiyaning markaziy g'oyasi shundan iboratki, nogiron shaxs boshqa insonlar bilan teng ravishda qadrlanishi, o'z hayotini mustaqil rejalashtirish va boshqarish huquqiga ega. Bu yondashuv ilgari mavjud bo'lgan paternalistik modeldan farq qiladi. Avvallari nogiron shaxslar qaror qabul

qilish qobiliyati cheklangan subyekt sifatida ko'rilgan bo'lsa, CRPD ushbu stereotipni rad etdi.

Ilmiy asosga ko'ra, shaxsning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini "subyektiv avtonomiya" tushunchasi bilan izohlaydigan zamonaviy falsafiy oqimlar (Amartya Sen, Martha Nussbaum) CRPD tamoyillarining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Ushbu prinsip O'zbekiston qonunchiligida ham aks etgan: 2020-yilgi "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Qonunda nogiron shaxslar o'z hayoti, ta'limi, bandligi, tibbiy yordamni tanlashda mustaqil huquqqa egaligi belgilangan.

**Kamsitmaslik tamoyili.** CRPDning 3 va 5-moddalari nogiron shaxslarni kamsitishning barcha shakllarini qat'iy taqiqlaydi. Bu to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita, strukturaviy va tizimli kamsitishni qamrab oladi. Kamsitishning zamonaviy talqini ikki shaklda namoyon bo'ladi:

- *To'g'ridan-to'g'ri kamsitish* — nogironlik asosida huquqning ochiq rad etilishi.
- *Bilvosita kamsitish* — barcha uchun umumiy bo'lib ko'ringan norma nogiron shaxs uchun noqulay bo'lganda yuzaga keladi.

CRPDga binoan, nogiron shaxsga oqilona moslashtirishni ko'rsatmaslik ham kamsitish hisoblanadi. Bu xalqaro huquqda yangilik bo'lib, boshqa konvensiyalarda mavjud emas.

**Jamiyatga to'la va samarali jalb etish va qo'shish tamoyili.** Bu tamoyil ijtimoiy modelning amaliy ko'rinishi bo'lib, jamiyat nogiron shaxsni muhitga moslashtirmasligi kerak, aksincha jamiyatning o'zi moslashishi lozim. CRPDga ko'ra:

- ta'lim tizimi inklyuziv bo'lishi shart;
- bandlikda teng imkoniyat bo'lishi kerak;

- siyosiy hayotda, ovoz berishda ishtirok to'siqsiz bo'lishi kerak;
- transport, kommunikatsiya va axborot infratuzilmasi moslashtirilishi shart.

**Nogironlarning o'ziga xos xususiyatlarini hurmat qilish va buni insoniy turfa xillikning tarkibi va insoniyatning bir qismi sifatida qabul qilish tamoyili.** Konvensiya nogironlikni insoniyatning tabiiy xilma-xilligi sifatida ko'radi. Ya'ni jamiyat nogiron shaxsni normal me'yordan "chetda qolgan" emas, balki insoniyatning tabiiy qismi sifatida qabul qilishi lozim.

Bu tamoyil stigmatizatsiya, stereotiplar va noto'g'ri qarashlarga qarshi kurashadi.

**Imkoniyatlarning tengligi tamoyili.** CRPD 27, 24, 29-moddalarida ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik, siyosiy jarayonlarda teng imkoniyatlarni kafolatlaydi.

Teng imkoniyat mazmunan uch elementni o'z ichiga oladi:

1. Teng yuridik huquq
2. Teng imkoniyatlardan foydalanish
3. Teng natijalarga erishish uchun qo'shimcha choralar (affirmative actions).

**To'siqsiz foydalanish tamoyili.** Mazkur prinsip CRPDning eng muhim yangiligi bo'lib, unga ko'ra nogiron shaxsga individual ehtiyoj asosida maxsus sharoit yaratish davlatning bevosita majburigidir.

Misol uchun, eshitishida nuqsoni bor talaba uchun imo-ishora tarjimonini ta'minlash; ko'zi ojiz shaxs uchun Braille alifbosidagi materiallar tarqatilishi; harakatchanligi cheklangan shaxs uchun panduslar yaratish va boshqalar.

**Erkaklar va ayollar tengligi tamoyili.** Erkaklar va ayollar tengligi tamoyili jinsidan qat'i nazar barcha shaxslarning huquq, erkinlik va

imkoniyatlarda teng bo'lishini anglatadi. Bu tamoyil jinsga ko'ra har qanday kamsitishni taqiqlaydi va amalda teng sharoit yaratishni talab qiladi.

Xalqaro miqyosda CEDAW (1979) va XMTning 100 hamda 111-sonli konvensiyalari gender tengligini belgilaydi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 58-moddasi ham erkak va ayollarning teng huquq va imkoniyatlarga egaligini kafolatlaydi.

**Nogiron bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatlarini hurmat qilish va nogiron bolalarning o'z shaxsiy xususiyatlarini saqlab qolish huquqini hurmat qilish tamoyili.** Ushbu tamoyil nogiron bolalarning yoshiga qarab shakllanib borayotgan qobiliyatlarini, mustaqil fikrini va rivojlanish jarayonini hurmat qilishni nazarda tutadi. Shuningdek, bola o'ziga xos shaxs sifatida ko'rib chiqilishi, uning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari va individual ehtiyojlarini saqlab qolish huquqi ta'minlanishi talab etiladi.

Bu tamoyil BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi (CRPD) hamda Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada mustahkamlangan bo'lib, davlatlardan nogiron bolalarni kamsitmasdan, ularning to'liq rivojlanishi uchun sharoit yaratishni talab qiladi.

O'zbekiston 2021-yilda "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi konvensiyani (CRPD) ratifikatsiya qilgani hamda 2020-yilda qabul qilingan maxsus qonun orqali ushbu tamoyillarni milliy huquq tizimiga izchil integratsiya qila boshlagani davlatning ijtimoiy siyosatida muhim burilish bo'ldi. Bu jarayon inklyuziv ta'limni kengaytirish, nogiron shaxslar bandligini oshirish, transport va arxitektura infratuzilmasini moslashtirish, saylov jarayonlarida qulaylik yaratish hamda ijtimoiy yordam tizimini modernizatsiya qilish kabi yo'nalishlarda amaliy islohotlarni talab etadi. 2023-yilgi yangi tahrirdagi Konstitutsiyada nogironlar huquqining alohida mustahkamlangani esa ushbu islohotlarning normativ asosini yanada kuchaytirib, nogiron shaxslarning

jamiyat hayotida teng va to'laqonli ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining muhim istiqbolini belgilab berdi.

## **2-§. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi pakt (ICESCR)da mustahkamlangan huquqlar**

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948) iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarning universal standartlarini belgilash orqali davlatlarning inson farovonligini ta'minlash borasidagi majburiyatlarini shakllantirgan asosiy xalqaro hujjatdir. Deklaratsiya barcha insonlar tug'ilishidan boshlab teng qadriyat va ajralmas huquqlarga egaligini e'tirof etadi. U iqtisodiy xavfsizlik, ijtimoiy himoya va madaniy kamolotga oid huquqlarni jamiyatning barqaror rivojlanishi bilan bog'laydi.

***Birinchi***dan, Deklaratsiya har bir insonning munosib turmush darajasiga bo'lgan huquqini **(25-modda)** e'tirof etib, insonning jismoniy mavjudligi, ijtimoiy barqarorligi va minimal yashash standartlarining kafolatlanishi davlat siyosatining asosiy vazifalaridan biri ekanini ko'rsatadi. Bunga oziq-ovqat, uy-joy, tibbiy yordam, kiyim-kechak, ijtimoiy ta'minot va keksalik yoki nogironlik kabi holatlarda davlat himoyasi kiradi.

***Ikkinchi***dan, Deklaratsiyada ta'lim olish huquqi **(26-modda)** insonning shaxs sifatida to'liq shakllanishi va jamiyatda faol ishtirok etishining asosiy omili sifatida ko'rsatiladi. Ta'limning boshlang'ich bosqichi bepul va majburiy bo'lishi belgilangan bo'lib, uning maqsadi shaxsning qobiliyatlarini rivojlantirish, inson huquqlariga hurmatni mustahkamlash, bag'rikenglik va tinchlik madaniyatini shakllantirishdan iboratdir.

***Uchinchi***dan, Deklaratsiya mehnat qilish, adolatli va qulay mehnat sharoitlariga ega bo'lish, kasaba uyushmalariga a'zo bo'lish va ishsizlikdan himoyalaniş kabi huquqlarni ham mustahkamlab, iqtisodiy huquqlarni

insonning shaxsiy erkinlik va barqaror turmush kechirish imkoniyatlari bilan bog'laydi.

**To'rtinchidan**, ICESCR ushbu deklarativ huquqlarni yanada aniqroq huquqiy majburiyat shakliga keltirib, davlatlardan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni talab qiladi. Paktning eng muhim jihati — unda davlat resurslaridan maksimal darajada foydalanish majburiyati belgilanganidir. Bu davlatning ijtimoiy siyosati bevosita budjet, infratuzilma va ijtimoiy dasturlar orqali fuqarolarning farovonligini ta'minlashiga qarab baholanishini anglatadi.

ICESCR tarkibidagi asosiy huquqlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- ✓ **Mehnat qilish va adolatli ish haqi huquqi** – xavfsiz mehnat sharoitlari, tinch mehnat qilish, kasbiy rivojlanish va mehnat sharoitlarida diskriminatsiyaning yo'qligi;
- ✓ **Eng yuqori darajadagi sog'liqni saqlash huquqi** – tibbiy xizmatlarning mavjudligi, jismoniy va ruhiy sog'liqni muhofaza qilish;
- ✓ **Ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minot huquqi** – keksalik, nogironlik, ishsizlik yoki boshqa ijtimoiy xavf paytida davlat himoyasi;
- ✓ **Madaniy hayotda ishtirok etish va ilm-fan yutuqlaridan foydalanish huquqi** – har bir fuqaroning madaniy identifikatsiyasini saqlash, ilmiy-texnik yutuqlardan teng foydalanish.

**Beshinchidan**, mazkur huquqlar faqat deklarativ emas, balki davlat siyosatini shakllantiruvchi me'yoriy yo'nalishlar sifatida qaraladi. ICESCR davlatlarga mazkur huquqlarni “resurslar imkon beradigan darajada” emas, balki resurslarni maksimal safarbar qilgan holda ta'minlash majburiyatini yuklaydi. Bu esa davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

Shunday qilib, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarning universal mohiyatini belgilab bergan bo'lsa, ICESCR ushbu huquqlarning aniq amalga oshirilish mexanizmini yaratib, davlat zimmasiga ularni ro'yobga chiqarish bo'yicha real majburiyatlar yuklaydi. Ikkala hujjat birgalikda insonning munosib hayot kechirishini, ijtimoiy adolatni va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda poydevor vazifasini bajaradi.

### **3-§. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlariga oid boshqa xalqaro-huquqiy hujjatlar tahlili.**

Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash borasidagi xalqaro-huquqiy baza faqat CRPD bilan cheklanmay, balki bir qator boshqa universal va mintaqaviy hujjatlar bilan mustahkamlangan bo'lib, ularning har biri davlatlarning majburiyatlarini yanada kengaytiradi va huquqiy standartlarni aniqlashtiradi.

#### **1. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (ICCPR, 1966)**

Nogiron shaxslarning siyosiy va huquqiy erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan. Ushbu pakt nogiron shaxslarning sud oldida teng himoyasini kafolatlab, ularning adolatli sudlov huquqini ta'minlaydi. Shuningdek, nogiron shaxslar so'z erkinligiga, axborotga erkin kirishga va saylovlarda ishtirok etishga to'la huquqqa ega ekanliklari ta'kidlangan. Bu hujjat nogiron shaxslarning siyosiy hayotga to'liq va faol qo'shilishlariga imkon yaratadi, ularning qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirokini rag'batlantiradi. Shunday qilib, ICCPR nogiron shaxslarni jamiyatda faqat qaramlik holatida emas, balki mustaqil va teng huquqli shaxslar sifatida qabul qilish zaruratini belgilaydi.

Bu hujjat nogiron shaxslarning so'z erkinligi, axborot olish, fikr bildirish va siyosiy jarayonlarda ishtirok etish huquqlarini kafolatlaydi. Masalan, nogiron shaxslar saylovlarda to'siqlarsiz ishtirok etishi, o'z vakillarini tanlash va saylash

imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. ICCPRning ushbu qoidalari nogiron shaxslarning jamiyatda mustaqil va teng huquqli fuqarolar sifatida qabul qilinishini ta'minlaydi. Shuningdek, u davlatlarga nogiron shaxslarni siyosiy, fuqarolik va ijtimoiy hayotda kamsitilishidan himoya qilish va ularning huquqlarini faol ravishda himoya qilish vazifasini yuklaydi. Ushbu pakt nogiron shaxslarning inson qadr-qimmatini hurmat qilish, ularga nisbatan kamsitmaslik va adolatli munosabatlarni ta'minlash uchun kuchli huquqiy asos yaratadi.

## **2. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya (CRC, 1989)**

Nogiron bolalarga nisbatan maxsus e'tibor qaratadi. Bu konvensiya bola sifatida ularning rivojlanayotgan qobiliyatlarini hurmat qilish, shaxsiy xususiyatlarini saqlab qolish huquqini ta'minlashni davlat zimmasiga yuklaydi. Nogiron bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish, ularning individual ehtiyojlariga mos rehabilitatsiya va sog'liqni saqlash xizmatlarini tashkil etish CRCning ustuvor vazifalaridan biridir. Ushbu konvensiya nogiron bolalarning jamiyatga integratsiyalashuvi, shaxsiy rivojlanishi va o'zini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida urg'u beradi.

Shuningdek, konvensiya nogiron bolalarga nisbatan tibbiy, psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlash, ularning ijtimoiy moslashuvi va o'z-o'zini rivojlantirishiga ko'maklashishni talab qiladi. Nogiron bolalar uchun maxsus muolajalar, rehabilitatsiya dasturlari, hamda oilaviy va jamiyat qo'llab-quvvatlashi ularning to'laqonli shaxs sifatida rivojlanishida muhim omillardir. Shu bilan birga, CRC nogiron bolalarning zo'ravonlikdan himoya qilinishi, ularning manfaatlariga ustuvor e'tibor qaratilishi va jamiyatda kamsitilmasligini kafolatlaydi.

## **3. BMTning 1993-yildagi "Nogironlar uchun imkoniyatlarni tenglashtirish standart qoidalari"**

Davlatlarga nogiron shaxslar uchun ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik, transport, kommunikatsiya va boshqa sohalarda teng imkoniyatlar yaratishni tavsiya qiladi. Bu qoidalar davlatlarga nogiron shaxslarning hayot sifatini

yaxshilash, ularning barcha sohalarda, xususan, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy faoliyatda to'laqonli ishtirok etishini ta'minlash uchun amaliy choralar ko'rishni talab qiladi. Standart qoidalar infratuzilma va xizmatlarni nogiron shaxslar ehtiyojlariga moslashtirish zaruratini aniq belgilab beradi va bu orqali ularning jamiyatdagi mavjud to'siqlarni bartaraf etishga yordam beradi.

#### **4. Yevropa Kengashining Nogironlar huquqlari bo'yicha kengaytirilgan strategiyasi (2021-2030)**

Nogiron shaxslarning mustaqil hayot kechirishlari va inklyuziv jamiyatda teng ishtirok etishlariga qaratilgan amaliy siyosat va chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Ushbu strategiya doirasida davlat organlari arxitektura, transport, axborot-kommunikatsiya tizimlari va xizmatlarni nogiron shaxslarning ehtiyojlariga moslashtirish majburiyatini oladi. Strategiya nogiron shaxslarning xavfsizligi, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoyasini mustahkamlash, ularning madaniy va sport faoliyatlarida faol qatnashishini rag'batlantirish kabi maqsadlarni ko'zlaydi. Bu yondashuv nogiron shaxslarning jamiyatda to'laqonli va samarali ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, nogironlik bo'yicha stereotiplarni yo'q qilish va kamsitishga qarshi kurashishda ham ushbu hujjat katta ahamiyatga ega. Ushbu strategiya Yevropa davlatlarining nogiron shaxslar uchun inklyuziv siyosatlarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha yo'l xaritasi hisoblanadi.

#### **5. Xalqaro mehnat tashkilotining (ILO) 159-sonli "Nogiron shaxslarning ishga joylashuvi haqida" Konvensiyasi (1983)**

Nogiron shaxslarning mehnat bozorida teng huquqlarini kafolatlaydi. Ushbu konvensiya davlatlarga nogiron shaxslar uchun ish joylarini moslashtirish, diskriminatsiyaga qarshi kurashish va ularning mehnat faoliyatida to'liq ishtirokini ta'minlash bo'yicha vazifalarni yuklaydi. ILOning ushbu normasi nogiron shaxslarning iqtisodiy mustaqilligi va jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Konvensiya shuningdek, nogiron shaxslar uchun malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarini tashkil etishni ham talab qiladi. Ushbu hujjat nogiron shaxslar mehnat huquqlarining kafolatlanishi, ularning jamiyatlardagi iqtisodiy faolligini ta'minlash uchun mustahkam me'yoriy bazani yaratadi.

Xulosa qilganda, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari keng ko'lamli xalqaro-huquqiy asosga ega bo'lib, ularning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotga to'laqonli integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu hujjatlar davlatlarga nogiron shaxslar uchun teng imkoniyatlar yaratish, ularga nisbatan kamsitishni yo'qotish va ularni jamiyat hayotining barcha jabhalarida faol qatnashishga rag'batlantirish majburiyatini yuklaydi. Bu esa nogironlik masalasiga kompleks yondashuvni taqozo etadi va jamiyat infratuzilmasi, siyosati hamda qonunchiligini inklyuzivlashtirishni talab qiladi.